

ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “TOMLARNING USTIDA KO’RINGAN ZAMON” SHE’RI TAHLILI

Nurmaxmatova Furuza Rasulovna

O’zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: XX asr o’zbek adabiyoti taraqqiyotiga o’zining betakror asarlari bilan sermahsul hissa qo’shgan ijodkor, o’zgacha badiiy tafakkur, teran falsafiy fikr-mulohazalar va ruhiy-psixologik tasvirlash qobiliyati sohibi Aleksandr Arkadevich Faynbergdir. U faqatgina yangicha she’riy shakl va ohangi bilan emas, inson qalbining tubida joylashgan eng nozik qatlamlarini tasvirlashdagi mohirligi bilan ham adabiyotda o’z mustahkam o’rnini egallagan, alohida e’tirofga sazovor bo’lgan qalbi qaynoq adabiyot namoyondalaridan sanaladi. Shoir ijodiyoti tashqaridagi real voqeliklardan ko’ra inson ichki dunyosini muhokama va tasvir markaziga qo’yadi. Uning asarlarida shaxsning ma’naviy kurashlari, vijdoniy iztiroblar va ruhiy kamolot yo’lidagi izlanishlar ustuvor bo’lib, shoir ko’pincha mana shu masalalarni o’z ijod namunalari bosh g’oyasi sifatida ilgari suradi. Faynberg asarlari o’quvchini tayyor xulosa bilan ta’minlash o’rniga keltirilgan muammo va fikr xususida mushohada yuritishga chorlaydi. Uning asarlarida hukm emas savol bor; shoir yo’q, balki ichki kechinmalar bor. Shoir o’z lirikasida insonni jamiyat, vaqt va makon bilan bog’liq tarzida tasvirlaydi. Shu jarayonda u avvalambor inson qalbidagi ikkilanishlar, e’tiqod va shubha, g’urur va kamtarlik, kuch va ojizlik o’rtasidagi ziddiyatlarga asosiy e’tiborni qaratadi. Shu jihati bilan Faynberg asarlari ma’naviy-axloqiy tafakkur maktabi vazifasini o’taydi. Aleksandr Arkadevich Faynberg ijodiyoti ko’p millatli madaniy muhitda shakllangan bo’lib, unda sharqona she’riyat an’analariga xos bo’lgan xususiyatlar yaqqol sezilib turadi.

Ijodkor lirikasida Vatan, insoniylik, halollik, vijdon, e'tiqod, qismat, ichki ozodlik kabi tushunchalar markaziy o'rinda turadi..U insonni ulug'lash va balandparvoz madhlardan ko'ra uning yuragida, ongostida ketayotgan ichki kurashlarni yoritib berishni afzal deb biladi. Sababi shundaki, insonning chinakam buyukligi uni tashqi dunyoda erishgan yutuqlari bilan emas, ichki dunyosida saqlab qolgan pokligi bilan baholanadi. Shoir asarlarida Yaratganga murojaat qilish sahnalari ham uchrab turadi, biroq bu diniy tashviqot emas, o'z ruhini poklash, ichki poklanish sifatida namoyon bo'ladi. Faynberg uchun ilohiylik insonni qo'rquvga soladigan kuch emas, aksincha uni to'g'ri yo'lga boshlovchi, ma'nan poklanishiga ko'maklashuvchi kuchdir. Ushbu maqola Aleksandr Arkadevich Faynberg she'riyatining yuqorida ta'kidlangan benazr xususiyatlarini o'zida aks ettirgan «Tomlarning ustida ko'ringan zamon...» misralari bilan boshlanuvchi she'ri tahliliga bag'ishlanadi.

Abstract: Alexander Arkadyevich Feinberg, a creator who made a fruitful contribution to the development of Uzbek literature of the 20th century with his unique works, is a person with a unique artistic mindset, deep philosophical thoughts and the ability to portray spiritual and psychological images. He is considered one of the most distinguished and warm-hearted literary figures who has earned special recognition, not only for his new poetic form and tone, but also for his skill in depicting the most delicate layers of the human soul. The poet's work puts the inner world of man at the center of discussion and depiction, rather than external realities. In his works, the spiritual struggles of the individual, the suffering of conscience and the search for spiritual perfection are paramount, and the poet often puts these issues forward as the main idea of his creative works. Instead of providing the reader with a ready-made conclusion, Feinberg's works focus on the problems and He encourages observation about thought. His works contain questions, not judgments; There is no motto, but rather internal experiences. In his lyrics, the poet describes a person in relation to society, time and space. In this process, he primarily pays attention to the hesitations in the human soul, the contradictions between faith and doubt, pride and humility, strength and weakness. In this regard, Feinberg's works serve as a school of spiritual and moral thought. The work of Alexander Arkadyevich

Feinberg was formed in a multinational cultural environment, in which the features inherent in the traditions of oriental poetry are clearly felt. In the lyrics of the creator, concepts such as homeland, humanity, honesty, conscience, faith, fate, and inner freedom are central. He considers it preferable to illuminate the internal struggles going on in a person's heart and subconscious rather than glorifying him and lofty praises. The reason is The fact is that the true greatness of a person is judged not by his achievements in the external world, but by the purity he has preserved in his inner world. There are also scenes of appeal to the Creator in the poet's works, but this is not religious propaganda, but rather a purification of one's soul, an internal purification. For Feinberg, divinity is not a force that frightens a person, but rather a force that guides him on the right path, contributing to his spiritual purification. This article is devoted to the analysis of the poem by Alexander Arkadyevich Feinberg, which begins with the lines "Time Appeared on the Roofs...", which reflects the unique features of the poetry of Alexander Arkadyevich Feinberg, which are highlighted above.

Аннотация: Александр Аркадьевич Файнберг, творец, внесший плодотворный вклад в развитие узбекской литературы XX века своими уникальными произведениями, — человек с неповторимым художественным мировоззрением, глубокими философскими размышлениями и способностью изображать духовные и психологические образы. Он считается одной из самых выдающихся и сердечных литературных фигур, заслуживших особое признание не только за свою новаторскую поэтическую форму и тон, но и за мастерство в изображении тончайших слоев человеческой души. В творчестве поэта в центре обсуждения и изображения стоит внутренний мир человека, а не внешние реалии. В его произведениях первостепенное значение имеют духовные терзания личности, страдания совести и поиск духовного совершенства, и поэт часто выдвигает эти вопросы в качестве основной идеи своего творчества. Вместо того чтобы предлагать читателю готовый вывод, произведения Файнберга фокусируются на проблемах и поощряют размышления. Его произведения содержат вопросы, а не суждения; в них нет девиза, а скорее внутренний опыт. В своих лирических произведениях поэт

описывает человека в контексте общества, времени и пространства. При этом он прежде всего обращает внимание на колебания человеческой души, противоречия между верой и сомнением, гордостью и смирением, силой и слабостью. В этом отношении произведения Файнберга служат школой духовно-нравственной мысли.

Творчество Александра Аркадьевича Файнберга сформировалось в многонациональной культурной среде, в которой отчетливо ощущаются черты, присущие традициям восточной поэзии. В лирике творца центральное место занимают такие понятия, как родина, человечность, честность, совесть, вера, судьба и внутренняя свобода. Он считает предпочтительнее освещать внутренние конфликты, происходящие в сердце и подсознании человека, чем прославлять его и возносить возвышенные похвалы. Причина в том, что истинное величие человека оценивается не по его достижениям во внешнем мире, а по чистоте, которую он сохранил в своем внутреннем мире. В произведениях поэта встречаются и сцены обращения к Творцу, но это не религиозная пропаганда, а скорее очищение души, внутреннее очищение. Для Файнберга божественность — это не сила, которая пугает человека, а сила, которая направляет его на верный путь, способствуя его духовному очищению. Данная статья посвящена анализу стихотворения Александра Аркадьевича Файнберга, начинающегося со строк «Время явилось на крышах...», которое отражает уникальные особенности поэзии Александра Аркадьевича Файнберга, выделенные выше.

Kalit soʻzlar: oʻzbek sheʼriyati, falsafiy lirika, maʼnaviy poklanish, oʻzlikni anglash, qismat va taqdir, ichki kurash, vijdon va masʼuliyat, ilohiy murojaat, inson va Yaratgan munosabati, ruhiy izlanish, maʼnaviy kamolot, axloqiy qadriyatlar, begonalashuv muammosi, shaxs va jamiyat, ramziy obrazlar, ichki monolog, maʼnaviy mustaqillik.

Keywords: Uzbek poetry, philosophical lyrics, spiritual purification, self-awareness, fate and destiny, internal struggle, conscience and responsibility, divine appeal, relationship between man and the Creator, spiritual search, spiritual perfection, moral

values, problem of alienation, individual and society, symbolic images, internal monologue, spiritual independence.

Ключевые слова: узбекская поэзия, философская лирика, духовное очищение, самосознание, судьба и предназначение, внутренняя борьба, совесть и ответственность, божественное обращение, отношения человека и Творца, духовный поиск, духовное совершенство, нравственные ценности, проблема отчуждения, личность и общество, символические образы, внутренний монолог, духовная независимость.

Aleksandr Arkadevich Faynberg ,avval ham ta'kidlaganimizdek,inson ruhiy va ma'naviy izlanishlariga,ma'naviy poklikka erishish jarayonini o'z asarlarida ko'p e'tiborga olgan.XX asrdagi murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoit,mafkuraviy bosimlar,shoir ijodiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmagan.Insonning o'zligini asrab qolishi,begonalashuvda yiroqlashish,o'z taqdiriga sodiq qolish qolish masalalari shoir lirikasida alohida ahamiyat kasb etadi.Bu jihat shoir tomonidan bitilgan asarlarni nafaqat badiiy-estetik,balki falsafiy hujjat darajasigacha yuksaltiradi.U o'zi yashagan davr manzaralarini inson qalbi vositasida kitobxonga ko'rsatib beradi.Faynberg o'z she'riyatida zamon va makon tushunchasi chegarasini bosib o'tadiga,hozirgi zamon zamonaviy odamlari uchun dolzarb mavzularni muhokama qiladi.Zero,har bir tirik inson bolasi hayotida o'zlikni anglab yetmoqlik,viydon oldida pok qolmoqlik,begona qadriyatlar ta'sirida yo'q bo'lib ketmaslik kabi masalalarga bir marta bo'lsa-da yuzlashadi.Shoir ana shunday umuminsoniy savollarni badiiy obrazlar,ramziy ifodalar va chuqur ichki monologlar orqali "Tomlarning ustida ko'ringan zamon..." satri bilan boshlanuvchi she'rida ochib beradi.

Tomlarning ustida ko'ringan zamon

Buyuk "Somon yo'li" – zarafshon vodiylar,

Shu vodiylardan menga xatlab ber makon,

Yaratguvchi, hukming – mangu, abadiy.

Yurakda manmanlik zavqin his etib,
Xudoyo, ojizlik qilib qo‘ymayin.
Behuda birovning dilin og‘ritib,
Birovning xayolin bo‘lib qo‘ymayin.
O‘zim bilan o‘zim qolayin tunda,
Dog‘uli lahzalar esga tushmasin.
Men uchun begona, o‘zga sandonda
Mening otash bolg‘am ishga tushmasin.
Meni yot ang‘izga hukm etma qahhor,
Biroq o‘rgan bug‘doy somonin yig‘may.
O‘zimni majburlab ko‘rdim necha bor,
Yashadim men o‘zga qismatga sig‘may

Aleksandr Faynbergning mazkur she‘ri inson ko‘nglining tubida unga azob berib kelayotgan iztiroblar, ma‘naviy izlanishlar va o‘zligini saqlash yo‘lida qilingan ruhiy janglarni yuqori saviyadagi falsafiy ohang orqali ifoda etgan asarlardan biri hisoblanadi. She‘r boshidam oxirigacha iltijo ko‘rinishida yozilgan bo‘lib, bu qo‘rquv va ojizlik sababdan emas, balki ongli ravishda ma‘naviy poklik sari intilishdir. Lirik qahramonning Yaratganga qilgan murojaati aslida uning o‘z vijdoni bilan qilgan suhbatidir. U shu yo‘l bilan o‘zini, qalbini sinovdan o‘tkazadi.

Asarda inson tabiatiga xos bo‘lgan qarama-qarshiliklar-g‘urur va kamtarlik, kuch va ojizlik, mustaqillik va qaramlik, o‘zlik va begonalik o‘rtasida yuz beradigan ziddiyatlar chuqur ruhiy kechinmalar tasviri asnosida yoritib beriladi. She‘r lirik qahramoni manmanlik qilishdan cho‘chiydi, biroq ojizlik iskanjasida qolib ketishni ham xohlamaydi;

kimsa dilini og'ritishdan qo'rq, chunki bu insoniylikning eng oliy mezoni deb baholaydi. Bu jihat, o'z navbatida, she'rning axloqiy-falsafiy mohiyatini belgilab beradi.

She'rda insonning o'zligini saqlab qolish g'oyasi markaziy o'ringa qo'yiladi. Begona muhit, o'zga qismat, yot va ma'naviy mustaqillikka xos fikrlar o'rta tashlanadi. Lirik qahramon o'z tabiatiga zid tarzda yashashning og'riqli tajribalarini tan olib, bunday hayot insonni ich-ichidan kemirib borishini aytib o'tadi. Shu boisdan ham, u o'z qismatiga sodiq qolishni, o'ziga tegishli ruhiy makonni yo'qotmaslikni so'raydi.

Asarning umumiy g'oyasi shundan iboratki, insonning eng kuchli kurashi uni o'rab turgan tashqi dunyo bilan emas, balki o'z ko'ngli bilan kechadi. Haqiqiy komillikning chin ma'nosi boshqa insonlardan ustun bo'lishda emas, o'z vijdoni qarshisidagi poklikni to'laqonli saqlab qola olishligida namoyon bo'ladi. She'r o'quvchini ham o'z ichki dunyosiga nazar tashlaganda, o'z xatti-harakatlarini ma'naviy mezon bilan o'lchashga da'vat etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Aleksandr Arkadevich Faynbergning ushbu she'ri inson qalbining ichki poklanish xohishi, o'zlikni saqlashga yo'lidagi ayovsiz kurash va Yaratgan oldidagi ma'naviy mas'uliyatni teran falsafiy ruh va ohangda ifodalab beradi. Asarda lirik qahramon o'z vijdoni bilan yuzma-yuz turadi, manmanlik va ojizlik oralig'ida muvozanat izlaydi, begonalashuvdan qochib, o'z qismatiga sodiq qolishni tanlaydi. Umuman, she'r ma'naviy komillik, ichki erkinlik va ruhiy mustaqillik g'oyasini o'zida mujassamlashtirgan she'riyatning chuqur falsafiy lirik namunasi o'laroq muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aleksandr Arkadevich Faynberg. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, turli yillar nashri.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Akademnashr.
3. Rasulov A. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Fan nashriyoti.

4. Mustaqillik davri o‘zbek she‘riyati bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent: Turon zamin ziyo.
5. Ruzikulova M. She‘riyatda ruhiy kechinma va badiiy ifoda uyg‘unligi. — “Adabiyot nazariyasi jurnali”, №3, 2022.
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg